

Berdiyeva Zulayxo
Òzbek tili va adabiyoti o'qituvchisi. Tadqiqotchi.

HOZIRGI DAVR O'ZBEK SHE'RIYATIDA BADIY KONSEPSIYA MASALALARI
(Zebo Mirzo va Halima Ahmedova ijodi misolida)

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada hozirgi davr o'zbek she'riyatida badiiy konsepsiyaning ahamiyatiga e'tibor qaratilgan.

Ushbu maqolada bugungi kunda adabiyotimiz gulshanida qalam tebratayotgan iste'dodli shoirlarimiz Zebo Mirzo va Halima Ahmedova ijodi haqida so'z boradi. Maqolaning ilmiy ahamiyati shundaki, unda bugungi davr she'riyatining asosiy g'oyalari va maqsadlariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Konsepsiya, Badiiy konsepsiya, Zebo Mirzo, Halima Ahmedova, Onajon, Yillar tuhfa qilgan go'zal iztirob, Tun Malikasi, Tungi marvaridgullar.

Annotation: This scientific article focuses on the importance of the concept of art in modern Uzbek poetry. This article is about the works of our talented poets Zebo Mirzo and Halima Ahmedova, who are currently working in the field of our literature. The scientific significance of the article is that it focuses on the main ideas and goals of contemporary poetry.

Keywords: Concept, Artistic Concept, Zebo Mirzo, Halima Ahmedova, Mother, Beautiful Suffering of the Years, Queen of the Night Night Pearls.

Аннотация: В данной научной статье подчеркивается важность концепции искусства в современной узбекской поэзии. Эта статья о творчестве наших талантливых поэтов Зебо Мирзо и Халима Ахмедовой, которые в настоящее время работают в области нашей литературы. Научная значимость статьи состоит в том, что в ней сосредоточены основные идеи и цели современной поэзии.

Ключевые слова: Концепт, Художественный замысел, Зебо Мирзо, Халима Ахмедова, Мать, Прекрасное страдание лет, Королева ночи Ночной жемчуг.

Kirish: Hozirgi davr o'zbek she'riyati adabiyotimizda o'zining salmoqli o'rniga egadir. Bugungi kunda she'riyatda, lirik yo'nalishda qalam tebratayotgan iste'dodli shoir va shoirlarimiz juda ham ko'p.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida Usmon Azim, Xosiyat Bobomurodova, Halima Xudoyberdiyeva, Xurshid Davron, Oydin Xojiyeva, Zebo Mirzo, Halima Ahmedova va boshqa bir qator ijodkorlarimizning sara ijod na'munalari alohida o'rin tutadi.

Bugungi kun she'riyati haqida to'xtalganda, unda ijtimoiy-siyosiy lirikaning asosiy pafosini mustaqillikni asrab-avaylash va uni mustahkamlash g'oyasi tashkil qilayotganini qayd etish mumkin.

Asosiy qism: Hozirgi davr o'zbek she'riyatida, shoirlar ijodida badiiy konsepsiyaning ahamiyati katta. Avvalo, konsepsiya o'zi nima? degan savolga javob beraylik.

Konsepsiya- (lot. Concepio- majmua, tizim)- 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar; 2) adabiyotda –biror asarning asosiy g’oyasi.

Hozirgi davr adabiyotida badiiy konsepsiya badiiy asar mohiyatini, ijodkorning “meni”ni ifoda etadi. Biroq badiiy asar, konsepsiyasi ayrim holatlarda muallifning subyektiv qarashlaridan keng qamrovli bo’lishi mumkin. Ba’zan muallif mo’ljalga zid holat yuz bersa ham, mohiyat e’tibori bilan asar o’z konsepsiyasiga ko’ra muallifning badiiy-estetik olamiga tegishli boladi. O’quvchining ma’naviy- ruhiy saviyasi, tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqib lirik asar konsepsiyasi alohida ta’kidlanib, ochiq- oydin ifoda etiladi. Adabiyotda inson vaborliq tabiatiga ko’ra konsepsiya bir butunlikni tashkil etadi. Masalan muayyan ijodkorning o’z konsepsiyasi yoki alohida olingan haqiqiy san’at asarining konsepsiyasi tarzida ham qo’yish mumkin.

Lirik asarlarda konsepsiya ijodkorning badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash mexanizmi –usuli bo’lib maydonga chiqadi. Umuman olganda badiiy konsepsiya asarning, ijod mahsulining san’at, adabiyot, va madaniyat tarixidagi o’rnini hamda o’quvchilar ommasiga ta’sir etish darajasini belgilaydi.

Zebo Mirzo va Halima Ahmedova ijodiga nazar tashlaydigan bo’lsak, ular ijodidagi asosiy badiiy konsepsiya she’riyatga olib kirgan yangi-yangi tashbehlar, o’z uslublari, yangicha ruhdagi she’rlari orqali namoyon bo’ladi.

Zebo Mirzo lirikasida ko’ngil eng asosiy qalamga olingan mavzulardan biri hisoblanadi. Shoira ko’ngil haqida shunday deydi:

- Ko’ngil ba’zida odamni adashtiruvchi , hayotda aql,

vazminlik bilan, mashaqqatlar oldida sabr bilan to’plangan jamiki narsalarni barbod qiluvchi bir kuch. U agar tug’yon qilsa, siz uni boshqarolmaysiz. U sizni boshqaradi . Ko’ngil bilan yashayotgan bir paytlarda o’zingizni o’zgacha tushuntirib berolmasligingiz mumkin.

Hatto o’zingiz ham o’zingizni tushunolmay qolasiz. Lekin atrofdagilar , kim sizni nima deb izohlamasin, baribir, ko’ngil bilan yashash aslida bir yaratganning tuhfasidir. Zebo Mirzoning ”Tun malikasi” ilk she’riy to’plamidan ham ajoyib lirik she’rlari o’rin egallagan. Shoira ijodida ishq-muhabbat asosiy mavzu. Shoira o’z she’rlarida ishq-muhabbatni baland pardalarda kuylaydi. Bu esa har bir she’r ixlosmandlarining qalbidagi mehr-muhabbat tuyg’ularining qadrini yanada oshiradi.

Zebo Mirzo lirikasida asosiy badiiy konsepsiya shoiraning g’oyalarida, o’z she’rlari orqali nima demoqchi bo’lganida, ko’ngil iztiroblarini yorqin chizgilarda aks ettirib bergan o’rinlarda ko’rinadi. Shoiraning she’rlarida insonni o’ziga tortadigan bir joziba bor. Bu she’rlarni o’qib inson o’zi bilmagan beixtiyor holda she’riyat olamiga maftun bo’lib qoladi. “Onamga” she’rida bu yaqqol aks etgan.

“ Onamga”

Oq sochlari oppoq tun uning,

Umri halol ishqqa bayroqdir.

Oh, yuzlari dunyoyi dunning

Go'zalidan chiroyliroqdir.
(Bo'lolmadim hassasichalik),
Otam dardin ko'targan mohim.
Ushoqqina onam ko'ngliga
Bir hovuch nur bergin, ilohim!
O'zi potrab chiqqan chashmaday
Yoningizdan oqdimu ketdim.
O'zgalarga daryo tutdimu,
Oh, onam-a, sizni unutdim.
Qaldirg'ochlar mendan yaxshiroq,
Baxt to'kadi hur quchog'iga.
Men ham uning tirnog'imanu,
Arzimayman, lek tirnog'iga.
Ismaloqlar bo'yini tarab,
Bahor shoshsa yurgan joyiga,
Rabbim meni gul qilib yarat,
Hech bo'lmasa uning poyiga!..

Yuqoridagi satrlarni o'qib ko'zlariga yosh olmagan inson bo'lmasa kerak. Shoira bu ijod mahsulida o'z qalbidagi, onaga bo'lgan muhabbatini, uning naqadar mo'tabar zot ekanligini, uning hizmatini ado etish farzandlar uchun ham qarz, ham farz ekanligini, shunchalar yorqin, hayajonli, tasirli qilib tasvirlab bergan.

Zebo Mirzo o'z she'rlarida ayol muhabbatining nozik qirralarini ham qalamga oladi. Ayol muhabbatining o'ziga xosligi shundaki, u naqadar kuchli, naqadar o'tli bo'lmasin, otashin tuyg'ularhaqida ochiq aytilmaydi. Ayol qalbi qanchalik nozik bo'lmasin otashin, olovli hislarni berkitishga qodir. Ayol hech kimga aytmagan so'zlarini, ko'ngil sirlari va kechinmalarini she'r deb atalmish allohning buyuk bir mo'jizasi qatiga singdiribgina yengil tortadi. Quyidagi mazkur she'r ham ayol muhabbatining samimiy iqroridir. Ushbu she'rda nozik hilqat vakilasi o'z yorini soginib chekkan tunganmas iztiroblari, hijronli kunlari haqida so'z boradi.

Sahrolar bag'rida adashgan...

Sahrolar bag'rida adashgan,

Iliq yomg'irlarday yog'sayding.

Namiqqan tuproqlar ko'ksida

Mag'fuz giyohlardek uyg'onsam...

Soyang tushib o'tsa nigohlarimga

Qo'ling topib borsa qalbimni.

Ovozing sachragan havoga

Shivirlab bossaydim labimni!

Bersayding ruhimga tiriklik

Ko'zlaring bir to'la nurini,

Yellar og'ushida chayqalغان

Behush maysalarning umrini...

Yiqilsam bag'ringga yiqilsam,

Yuragingga yetarmi yo'lim?

Oqib borayapman umringga,

Qo'llarimdan ushla sevgilim.

Lirik qahramon ruhiyati juda ta'sirchan tarzda aks etgan yuqoridagi she'rni o'qigan har bir kitobxon beixtiyor hayollar ummoniga g'arq bo'ladi. She'rda qalamga olingan chizgilar ayol qalbining qanchalar nozik hamda go'zal ekanligidan, uning juda maftunkor hilqat ekanligidan darak berib turadi. Uo'z tuyg'ularini har doim ham oshkor etavermaydi. Ayniqsa, bizning o'zbek ayollarimizda bu xislat kuchli tarzda namoyon bo'ladi. Sharq ayollariga xos bo'lgan ibo-hayo yuqoridagi misralarda yaqqol o'z aksini topgan. Bu holat Zebo Mirzo ijodining konsepsion xususiyatlarining asosiy jihatlaridan biridir.

Halima Ahmedova ijodi badiiy konsepsiyasida ham, asosan, shoiraning his-tuyg'ulari, kechinmalari, vatanga muhabbati, ayollik ma'suliyati kabi bir qancha ma'nolar aks etgan. Inson ma'nan tozalanib, poklangani sari ko'nglidagi allohni tanib, bilib boradi. Shoira o'z she'rlarida ana shu jarayonni tasvirlashga harakat qiladi. U dunyo tashvisharidan bir zumga bo'lsada yiroqlashib, o'zini allohning bir zarrasi ekanligini his etgisi keladi. Quyidagi she'rda ham insonning qismati, unga taqdirning nimalarni hozirlab qo'rganligi haqida so'z boradi.

Derazamni ochdim...

Derazamni ochdim shalabbo kunga,

Qismat nelarnidir hal qilardi, hal

Xudo, pok nafasing tegdi ko'ksimga,

Osmonning yuragi erigan mahal

Ketgim kelaverdi, bilmayman qayga,

Umrimdagi ulkan sukutni buzib.

Ship-shiydom daraxtga o'xshardi ko'nglim-

Mevalarin kimdir olgandir uzib.

Ketgim kelayapti bilmayman qayga,

Va qayda men kutgan lojuvard sahar...

Ketsam, adashaman o'zimda o'zim,

Ayanchli g'ofilman ketmasam agar...

Va ketdim haqiqat darichasini,

Chertgan shabbodalar yoniga ketdim.

Osmon va zaminning ohi tutashgan,

Ufqning qirmizi qoniga ketdim...

Qayg'u to'lqinidaan mast bo'ldi ruhim,

Daryolar ruhiga ruhimni ekdim.

Devona ko'nglimni telba ko'nglimni,

Qushlarnig ko'ziga aldab berkitdim.

Derazamni ochib shalabbo kunga,

Negadir qo'llarim ma'yus yig'ladi.

Usti boshi bo'kkan, hol bo'lgan dunyo,

Dilimdagi olov nomin bilmadi.

Derazamni ochdim shalabbo kunga.

Yuqoridagi satrlardan anglashinadigan konsepsion ma'no shundaki, lirik qahramon ma'naviy dunyosi, uning dunyoqarashi, taqdir unga hozirlab qo'ygan sinovlarni yengib o'tishi uchun u, eng avvalo, allohga suyanishi, alloh uning qalb hotirjamligiga erishishi uchun birdan- bir najotkor zot sifatida tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Halima Ahmedovaning “Yillar tuhfa qilgan go’zal iztirob “ she’ri ham kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan. Ushbu she’rni shoira ijodinig gultojlaridan biri desak ham mubolag’a bo’lmaydi. Halima Ahmedova badiiy konsepsiyasi har bir ijod mahsulida o’zining yorqin ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davr she’riyatida badiiy konsepsiyaning ahamiyati juda katta. Bu o’rinda Zebo Mirzo va Halima Ahmedovalarning lirikasi badiiy konsepsiyasi jihatidan hozirgi adabiy jarayonda ijod qilayotgan ijodkorlar ijodidan anchagina farq qiladi. Biz sizga o’zimizning shaxsiy qarashlarimiz va fikrlarimizni turgan belgilarni sanab o’tgan bo’lsak-da, unda yana ko’plab kichik o’ziga xosliklarni topishimiz mumkin. Shoiralar ijodida ko’zga tashlangan har bir badiiy detal o’zining salmoqli o’rniga egadir. Umuman olganda har bir ijod mahsulida badiiy konsepsiyaning ma’lum bir qirralari ko’zga tashlanganiga guvoh bo’lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Halima Ahmedova “ Dil ustiga ko’prik qurib”. Abdulla Ulug’ov.
2. “ O’zbek adiblari” S.Mirvaliyev, R.Shokirova. Toshkent.G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2016-yil.
3. “Tunggi marvaridgullar”,”Kitob dunyosi” gazetasi.2018-yi 20-iyun.
4. Halima Ahmedova “Yashil” Toshkent- “O’zbekiston”- 2016.
5. Zebo Mirzo “ Yangi she’rlar” Tafakkur-2021.